

HUVAYDONING “ROHATI DIL”DOSTONIDA  
ROBIYA ADAVIYA OBRAZI

*Abduraimova Gulshoda Abdurashid qizi*

*SamDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.d. dotsent: Muhiddinova Nazmiya*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasvvuf ta’limotida chuqur iz qoldirgan mashhur so`fiy ayol Robiya Adaviya haqida muxtasar so`z yuriladi. Uning tazkiralarda keltirilgan “Tojur rijol” unvoni muxtasar tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Robiya adaviya, so`fiy, orif, tasavvuf, Ka’ba, niyoz va namoz.

Tasavvuf tarixida ayollarning ham ta’sirli mavqeい va ahamiyati bor edi. Bu davrda Sulamiy va boshqa olimlar so`fiy ayollarning turli xil mo`jizalari haqida turli xil asarlar yaratdi. Tazkiralarda ayollar haqidagi bo`lim deyarli yo`q. Biroq, bu ularning samarali emasligini anglatmaydi. Tasavvuf bir poklanish bo`lib u faqat ruh bilan shug`ullanadigan haqiqatdir. Suluk bosqichida ayol o`z jinsida ozod bo`lishi kerak. Tabiatning eng katta qismi uning ayolligini ta’kidlamasligi kerak. Attor so`zlar bilan aytganda, “Men va siz ayollar va erkaklar haqida nima desa bo`ladi?.. Ammo Attor o`z xotiralarida faqat birgina ayol ismini tilga oladi. U Robiya haqida gapiradi. Hadisga asoslanadigan bo`lsak “Muhimi shakl emas, balki niyatdir” deydi. “Nafohat ul- uns” da juda ko`p so`fiy ayollar nomi tilga olinadi va bo`limning boshida “Erkaklar darajasiga yetgan ayollar” bo`limi sarlavha ostida aynan Robiyat ul-Adaviya nomi tilga olib zikr qilinadi.<sup>1</sup> Huvaydo butun hayoti va faoliyati davomida islom ta’limoti va tasavvuf g`oyalarini targ`ib etishga, zamona muammolarini oqilona hal etish uchun diniy ilm va ma’rifatni ravnaq toptirishga, naqshbandiya g`oyalarini zamondoshlari o`rtasida keng targ`ib etishga, o`zi bu borada boshqalarga ibrat bo`lishga intildi. O`zi hunarmandchilik, dehqonchilik va maktabdorlik bilan mashg`ul bo`ldi, kamtarona hayot kechirdi. Noseh Chimyoniy ustozи Huvaydoning xos fazilatlari, ibratli hislatlarini tasvirlar ekan, saharlar turib, Allohga yolborib iltijo qilganligini, jo`mardlikda xuddi Ibrohim Adham singari molu dunyoga nazar solmay yashaganligini, hamisha shogirdlari hamsuhbatlari ko`nglini shod qilganligini alogida ta’kidlagan. Huvaydoning hayoti, ijodiy faoliyati tasavvufiy qaarshlariga oid ma’lumotlar uning devoniga kiritilgan g`azallaridan, “Rohati dil”, “Ibrohim Adham”qissalaridan olishimiz mumkin. Zero mashhur nemis olimi Zigmund Freydning ruhiy tahlil nazariyasiga ko`ra, har bir ijodkorning asarlarida uning boshqalardan sir saqlaydigan istak, mayl, orzu, umid va maqsadlari o`z ifodasini

<sup>1</sup> Dr. Mevhibe Altunkay. Zâhide-Süfiye Kadınların Tasavvuf Tarihindeki Yeri ve Önemi. 2021. Ankara.-B317-321

topadi.<sup>2</sup>

Huvaydoning ushbu dostonida Robiya Adaviya haqidagi ma'lumot Ibrohim Adham hikoyasida uchraydi. Guvohi bo`ldikki o`zbek mumtoz adabiyoti aynan bu mavzuni yorituvchi juda ko`p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu hikoyatni o`ziga xos uslubda yangi tuyg`u va kechinmalar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqaliifodalashga erishgan sanaladi. Bu hikoyada Ibrohim Adhamning Balx elidagi podsholigihqidagi misralar bilan boshlanadi.

Bor edi Balx elining podshohi,  
O`shal iqlim uza edi sipohe.  
Musulmon podshohi, boadolat,  
Topib edi ra'iyatlar farog`at.  
Edi hukm ravona bahru amvoj,  
Olur edi Xitoyu Hinddin boj.<sup>3</sup>

Bu misralar orqali adib Ibrohim Adhamning Balx elida odilona podshohlik qilayotganligini ta'kidlab o`tmoqda. Huvaydo hikoya davomida Ibrohim Adhamning bir qancha hislatlarini sanab o`tadi. Ibrohim Adhamning tug`ilishini ham xuddi bir mo`jizadek bayon qiladi.

Kecha bo`lsa kezar edi go`riston,  
Anga odat edi joyi zimiston.  
Yurib erdi kezib bir kun mazore,  
Chiqar bir qabrdin faryodu zore.  
Qilur ko`p nolai vovaylota ul,  
Mani olg`il debon aylar nido ul  
Dedi Adham bu banda ko`p gunohkor.  
Erur mundog` azob ila giriftor,  
Aning oldig`a emdi men borayin,  
Nechuk odam ekon holin so`rayin.  
Borib turdi o`shal go`rning qoshiga,  
Quloq soldi aning ko`p nolishiga.  
Na ish qilding dedi, ey bandai zor.  
Bolubsan bu azob birla giriftor?  
Qiz aytgan man azob ichra emasman,  
So`zumni man sanga yolg`on demasman.  
Mani bilgil bu go`r ichra tirildim,  
Rangi sakta marazdin men yozildim.  
Dedi san turmag`il go`rni ochqil,  
Mani tezroq ochib go`rdan chiqorg`il.

<sup>2</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xojamnazar-huvaydo-devon.html>

<sup>3</sup> X.Huvайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б88

Qaddi siyna erdi go`rning amiqi,  
Chiqardi qazibon, qolmadi xoki.  
Lahadlarni olib qildi kushoda,  
Shitoban qo`pdi go`rdin shahzoda.  
Yiroq turg`il dedi ey odamiyzod,  
Chiqarman yolg`uzin bu go`rdin ozod.  
Kafanga chirmalib sarve gulandom,  
Chiqolmadim necha qatla qo`yib kom.<sup>4</sup>

Bu hikoyada Ibrohim Adhamning tug`ilish voqeasi ham bayon qilib o`tiladi. Uning otasi Adham bo`sh vaqtlarida ko`proq qorang`u zimiston gabristonni ziyorat qilar edi. Shunday kunlarning birida Adham bir go`rdan ovoz eshitilayotganini sezib qoladi u shu go`rdan bir qizni qutqarib oladi va qizni o`z nikohiga oladiva ular og`il farzand ko`rishadi va unga Ibrohim deb ism qo`yishadi. Ibrohim yoshligidan juda ko`rkam, chiroyli bo`lganligi bois butun el unga muhannbbat qo`yadi uni ardoqlaydi. Mazkur hikoyada Robiya Adaviya obrazi ham qatnashadi. Ibrohim Adham o`n to`rt yil sahro kezib Makkai mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka`batulloh o`z o`rnida yo`q ekan. O`sha muqaddas makonda hozir bo`lganlar sajdahohning Robiya Adaviya qarshisiga chiqqanligini ma'lum qilishadi. Tabiiyki bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adhamni fig`onini falakka ko`taradi. Shunday qilib, ibrohim Adham va robianing uchrashuvi hamda muloqotlari voqe' bo`ladi. Ibrohim Adhamning fig`onloi savollarini tinglagan Robia shunday javob beradi.

...Dedi ey Robia baxting na bo`ldi?  
Saning olding`a Ka`ba keldi bexosdan,  
Nega boqmassan anga qarab rost.  
Dediki Robia baxting saningdur,  
Bu so`zni manga andog` aytganingdur.  
Mashaqqatsiz yemishda yo`q lazzat,  
Topilsa mashaqqatsiz har nimarsa.  
Aning qadrin bilmasdur har kimsa,  
So`radi boz sulton Robiadon.  
Manga aytg`il dedi bu voqeadin,  
Ki san har bir qadamda ikki ra`qat  
O`qur eding namoz, ey neki hikmat.  
Manam har bir qadamda ikki ra`qat  
Namoz o`quv qilur edim ibodat....<sup>5</sup>

Bu misralarda Robianing ham Ibrohimning ham Ka`baga kelish uchun har qadamda ikki rakat namoz o`qiganligini guvohi bo`lishimiz mumkin. Robia esa Ka`ba

<sup>4</sup> X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б94

<sup>5</sup> X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б100

uning oldiga chiqanligini u chanqab yotgan itga suv berishi voqeasi bilan bog`laydi. Bu voqea asrda shunday ifodalangan edi:

O`shal itga kelub erdi suv berdi,  
Ichub suv ondin o`z holig`a keldi.  
Duo aylab dedi it, yo ilohe!  
Hama darmodaning san-san panohe,  
Bu bandangning bugun na maqsudi bor,  
Ravo qilg`il ayo donoyi asror.  
Ijobat bo`ldi u itning duosi,  
Muyassar bo`ldi ul dam muddaosi.<sup>6</sup>

Bu misralarda aynan Robiyaning niyati ijobat bo`lishiga uni itning sug`orishi va it uni duo qilish voqeasi sabab qilib keltiriladi. Alloh nazdida hech bir savobli ish javobsiz qolmasligini yuqoridagi hikoyatdan ham ko`rishimiz mumkin, chunki Alloh rahmdil va u yaratgan narsalarni seuvuchchi va shukrona keltiruvchi bandalarini boshqa bandalaridan a`lo ko`radi.

O`shal dam qo`pdi, ko`nglagini kiydi,  
Aning oldig`a Ka`ba qarshu keldi.  
Anga bir iltifot qilmadi ul hech,  
Yonub bir qira ko`zin solmadi hech.  
Chirog`iga ravondek borur erdi,  
Boshindin Ka`ba chun parvona bo`ldi.  
Edi ilginda asoyi cho`p bepo`st,  
Ayog`in qo`ymas edi yot bedo`st.  
Belin bog`lab eranlardek urub bar  
Borar to`rg`a nechuk Muso payg`ambar.  
Alardek borur erdi Robiya ham,  
Xudoning yodidin o`zga yemay g`am.<sup>7</sup>

Bu misraalr orqali garchi Robiyaning oldiga Ka`ba o`zi kelgan bo`lsa ham Robiya do`sitisiz Ka`baga bir qadam ham qo`ymaydi, chunki Ka`ba faqat Allohning uyi sanaladi bu yerda uning diydoriga yetishish mumkin emas. Robiyaning fikri yodi esa faqatgina Alloh visoli. Unga bo`lgan muhabbat shunchalik kuchlik buy o`lda na Jannat go`zalligi van a do`zax qo`rquvi uni chalg`ita oladi.

Qissa so`ngida shoir tomonidan keltirilgan bir g`azal Ibrohim Adham faoliyatining mazmun-mohiyatini yaqqol sharhlovchi xulosa o`mi bosa oladi:

Dunyoni tark qiluvchi uqbog`a yuz urg`on kishi,  
Jannat ila hurni netar Mavlo yuzin ko`rgan kishi.  
Kim bexabardur Mavlodin mag`rur erur dunyoyig`a,

<sup>6</sup> X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б

<sup>7</sup> X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б

Dunyoning mulkin naylasinondin xabar olg`on kishi.

Fag`furi qaysar mulkni boshig`a ursunmi oni,

Netsun Sulaymon taxtini ishq taxtiga mingan kishi.<sup>8</sup>

Ushbu qissa Huvaydoning “Rohati dil” dostoniga qo`yilgan talab, aynan komil inson tarbiyasi uchun xizmat qilgan asrda insonl;ar orasidagi yomon illatlar qoralangan

**Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati:**

- 1.X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б88
- 2.Dr. Mevhibe Altunkay.Zâhide-Sûfiye Kadınların Tasavvuf Tarihindeki Yeri ve Önemi.2021. Ankara.-B317-321
- 3.<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xojamnazar-huvaydo-devon.html>

---

<sup>8</sup> X.Хувайдо. Роҳати дил. Т.; А. Кодирий номидаги ҳалқ мероси наширёти. 1994.-Б